

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

10  
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 714 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., TDU rektori

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dotsent

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna SamDu IS instiuti professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Nomozova Qumri isoyevna Geologiya fanlari universiteti "Iqtisodiy geologiya" kafedrasi dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi PKQTUMOTMXHB mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Qishloq xo'jaligida innovatsion xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	8
<b>Sharipov Kongratbay Avezimbetovich</b> , professor, <b>Zaynudinova Umida Djalalovna</b> , dotsent	
O'zbekiston-Turkiya do'stligi azaliy qadryatlarimiz zaminida yashab kelmoqda.....	13
<b>O'sman Mesten</b> , Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya-O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari	
O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish.....	15
<b>Akkulov Abdulaziz Uralboyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekiston Respublikasini "Yashil" iqtisodiyotga o'tish istiqbollari. Muammolar va yechimlar .....	19
<b>Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li</b> , doktorant	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "Yashil" iqtisodiyotning o'rni.....	26
<b>Sevara Yaxshimuratova Rustam qizi</b> , assistent-o'qituvchi	
Sanoat barqarorligini ta'minlashda yashil energetikaning o'ziga xos xususiyatlari .....	29
<b>Kadirov Abdumalik Matkarimovich</b>	
Republikamizda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishda agroxizmatlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	36
<b>Mirzayev Q. J.</b> , i.f.d., professor; <b>Jonuzokov M. K.</b> , assistent o'qituvchi	
"Yashil" obligatsiyalarini muomalaga chiqarishning nazariy va amaliy jihatlari.....	40
<b>E. I. Nosirov</b> , i.f.n., dotsent	
Turizm sohasidagi loyihalarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	46
<b>Matkabulova Dilorom Xalilullayevna</b> , PhD	
Koreya Respublikasida yashil (eko) turizmning rivojlanish yo'nalishlari va muammollar.....	51
<b>Islomova Dilrabo Salomovna</b> , kafedra assistenti	
Moliyaviy menejment tizimini transformatsiyalashda raqamli marketing samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari .....	55
<b>Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich</b> , PhD, dotsent	
Samarqand viloyati ekologik turizm salohiyatidan samarali foydalanih asosida ekoturizm klasterlarini shakillantirish.....	62
<b>Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi</b> , i.f.b.f.d.; <b>Axrorov Farxod Baxriddinovich</b> , i. f. n.; <b>Xo'jamov Bobur</b> , tadqiqotchi	
Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	68
<b>Dehqonov Burxon Rustamovich</b> , tayanch doktorant	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanishiga global trendlarning ta'siri .....	72
<b>Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich</b> , i.f.d., professor	
Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan .....	79
<b>Karimova Aziza Maxomadrizoyevna</b> , PhD, docent; <b>Maqsudov Orif Shakirovich</b> , assistant	
Islomiy moliya instrumentlari (muzoraba va mushoraka) va ularni tijorat banklarida qo'llash.....	84
<b>Madraximova Gulasal</b> , dotsent; <b>Safarova Nasiba</b> , magistrant	
Mamlakatimizda "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari.....	90
<b>Mustafaqulov Yangiboy Bo'riqulovich</b> , <b>Todjimamatova Mashhura Erkinovna</b> ;	
<b>Nurmatova Hilola A'zamovna</b> ; <b>Berdieva Aziza G'anisher qizi</b> ; <b>Egamberdieva Oydin Abror qizi</b>	
Ways to Improve the Green Recovery in Uzbekistan by Investment and Trade.....	97
<b>Nurbek Khalimjonov</b> , assistant	
Evaluating the Path Towards Sustainable Tourism Development in the Republic of Uzbekistan .....	102
<b>Khusniddin Egamnazarov</b>	
Nexus Between Climate Change and Energy Consumption in Uzbekistan: A Time Series Analysis.....	106
<b>Sarvar Mamasoliyev</b> ; <b>Shodiyor Toxirov</b>	
O'zbekistonda mice turizmini barqaror rivovlanishida qulay infratuzilma .....	112
<b>Xalimova F. N.</b> , katta o'qituvchi	
Ichki turizmni rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llashning iqtisodiy afzalliklari .....	115
<b>Matkarimov Jahongir Shamuratovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Agroturizmni rivojlantirish orqali hududlarning barqaror rivojlantirish imkoniyatlari.....	122
<b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b> , kafedra dotsenti	
Turizm sektorida milliy hunarmadchilik mahsulotlarining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	126
<b>Xushnazarova Maxzuna Gulamjanovna</b> , kafedra assistenti	
Роль религиозного туризма в экономике Узбекистана.....	132
<b>Рахимова Дилфуза Мирзакасимовна</b> , преподаватель	
Turistik sanoatining investitsion jozibadorligini boshqarish va samaradorligini baholash.....	139
<b>Sa'dullayeva Gulnoza Sodiq qizi</b> , PhD	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ



Turizmga innovatsiyon texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari .....	144
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b> , doktorant	
O'zbekistonning "yashil iqtisodiy strategiyasi" va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari .....	147
<b>Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich</b> , dotsent	
An Analysis of the Structure of Trade Between China and Uzbekistan .....	150
<b>Cao Gang</b> , PhD Candidate	
"Daka-Tex" MCHJ XKning marketing faolyatining takomillashtirish.....	160
<b>Musyeva Shoira Azimovna</b> , kafedra professori	
Mamalakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat xavfsizligining o'rni.....	164
<b>Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich</b> , PhD; <b>Shukurova Nilufar Qahramanova</b> , tadqiqotchi;	
<b>Umirov Islombek Furkatovich</b> , tadqiqotchi; <b>Tojiqukov Samandar Orufjon o'g'li</b> , tadqiqotchi	
MDH davlatlarida chorva va parandachilik o'sish dinamikasi .....	169
<b>Abidov Abdujabbor Abduxamidovich</b> , t. f.n., dotsent	
Tijorat banklarida foiz stavkaning likvidlilikka ta'siri .....	179
<b>Berdiyorov Baxriddin Tavasharovich</b> , iqtisodiyat fanlari doktori, professor	
O'zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvining dolzarb masalalari .....	186
<b>Burxanov Aktam Usmanovich</b> , i.f.d., prof.; <b>Xudoyqulov Xurshid Xurramovich</b> , i.f.d., prof.	
O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lisligha oid .....	191
<b>Ruzibayev Jahongir Nodirovich</b>	
O'zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori hozirgi holati tahlili.....	194
<b>Ro'ziqulov Abdimo'min Qussam o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Raqamli texnologiyalar orkali turizm industriyasini rivojlantirish usullari .....	200
<b>R. P. Zarikeyev</b> , mustaqil doktorant	
Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda inson resurslaridan foydalanish amaliyoti .....	206
<b>Abdualimov Ashraf Qurbonaliyevich</b> , doktorant	
Oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt shakli mablag'lari bo'yicha xarajatlar va ular hisobining amalidagi holati .....	211
<b>Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna</b> , doktarant	
O'zbekistonda oziq-ovqat bozori nazariy tahlili.....	216
<b>Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi</b> , doktorant	
Sug'urta munosabatlarini takomillashtirishning istiqbollari .....	221
<b>Abduturapova Dildora Farxodjon qizi</b> , doktorant	
Functions of Management in Education and Its Significance .....	231
<b>Akhatova Shakhnoza Akram kizi</b> , teacher	
Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishni yangicha usullarini o'rganishning ayrim dolzarb masalalari .....	235
<b>Ametov Quvondik Mamatjanovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Yog'-moy sanoati korxonalari kapitali rentabelligini oshirish yo'nalishlari.....	238
<b>Amirzoda Hamrayev</b> , katta o'qituvchi	
Banklararo to'lov tizimini raqamli iqtisodiyotdagi rolini oshirish choralari .....	244
<b>Amonov Alisher</b> , o'qituvchi	
Baholash faoliyatini raqamlashtirish istiqbollari.....	248
<b>Bobirjon Aktamov</b> , katta o'qituvchi	
Marketing xizmati samaradorligini baholashda PEST tahlil usulining ahamiyati va qo'llash imkoniyatlari .....	253
<b>Boyigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li</b> , katta o'qituvchi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining vujudga kelish zarurati, umumiy hisobotlarining tuzilishi va O'zbekistonning MHXSga o'tishida vujudga keladigan muammolar va ularni bartaraf etishning istiqbolli yo'nalishlari.....	259
<b>Djurayeva Iroda Bahrom qizi</b> , doktorant, o'qituvchi	
Samaradorlikni korxona iqtisodiyotida tutgan o'rni .....	265
<b>Fayziyeva Nilufar Shuxrat qizi</b> , PhD, katta o'qituvchi	
Avtomobil transporti korxonalarida amortizatsiya xarajatlari va uning hisobini takomillashtirish masalalari...	269
<b>G'anibayev Ilhomjon Shokiraliyevich</b> , doktorant	
Turistlar statistik hisobini olib borish bo'yicha xalqaro standartlar va tajribalar tahlili .....	275
<b>Jumanova Zilola To'ychiyevna</b> , doktorant	
Tijorat banklari ipotekali kreditlarining qaytuvchanlik holatini barqarorlashtirish choralari .....	280
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b> , kafedra o'qituvchisi	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	284
<b>M. Samiyeva</b> , kafedra assisenti	
Assessment of the Economic Effectiveness of the Railway Transport System .....	288
<b>Mannonov Shahruhmira Abdurashidovich</b> , independent researcher	
O'zbekistonda mikromoliya tashkilotlarining iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari.....	294
<b>Nazarova Muslima Nazarovna</b> , PhD, i.f.f.d., katta o'qituvchi	



Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	301
<b>Odilov Dilshodjon Tulqinovich</b>	
O'zbekistonda paxtachilik majmuasining iqtisodiy samaradorligini oshirish .....	307
<b>Xoliqov Tolibjon Luptullaevich</b> , kafedra assistenti	
Ta'lim tizimi boshqaruvida "time menejmenti" texnologiyalarini qo'llash.....	311
<b>Radjabova Gavxar Umarovna</b> , kafedra dotsenti	
Improving Trade Effectiveness Through Merchandising: Theory and Practice .....	316
<b>Ravshan Aliyevich Allayorov</b> , Associate Professor	
An'anaviy moliya tizimidagi yangi yondashuv va yechimlar .....	319
<b>Abrorov Sirojiddin</b> , PhD; <b>Bunyod Usmonov</b> , PhD	
Ijtimoiy fondlar va maqsadli jamg'armalar faoliyatini takomillashtirish .....	325
<b>Samiyeva Gulnoza Toxirovna</b> , PhD, i.f.f.d.	
Tikuv-trikotaj korxonalarining brend jozibadorligini marketing strategiyalari asosida oshirish.....	332
<b>Sh. Sh. Ziyayeva</b> , katta o'qituvchi	
Surxondaryo mintaqasining ekoturizm salohiyati nuqtayi nazaridan baholash .....	337
<b>Soatoq Yusuf Xo'jayor o'g'li</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Совершенствование учета неиспользованных основных средств в Республике Узбекистан.....	340
<b>Усманов Фаррух Обитжонович</b> , научный сотрудник кафедры	
An'anaviy moliya tizimining metodologik muammolari, shuningdek moliya tizimida yuz beruvchi inqirozlar va ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari .....	348
<b>Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich</b> , stajor tadqiqotchi	
Dehqon xo'jaliklarda mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishda tomorqa xizmati klasterlarini takomillashtirish .....	355
<b>Xamrayeva Sayyora Nasimovna</b> , kafedra professori; <b>Ochilova Nargiza Akramovna</b> , doktorant	
Transport xizmatlari bozorida marketing faoliyatini mexanizmlarini rivojlanishining asosiy tamoyillari .....	360
<b>Nosirov Javlonbek Jamoliddin o'g'li</b> , doktorant; <b>Raxmatov Ziyodullo Nosirovich</b> , dotsent	
BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida kambag'allikni qisqartirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalari .....	363
<b>Yusupov M. S.</b> , PhD	
Мировые финансовые центры точники роста экономики .....	369
<b>Абдуллаев Анвар Фарҳадович</b> , PhD, доцент кафедры	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy ijtimoiy qarashlaridagi umumiylik va xususiylik .....	375
<b>Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich</b> , PhD	
Математическое обоснование вычисления моды и медианы в статистике .....	379
<b>Бердикулова Ирода Райимкуловна</b> , старший преподаватель; <b>Усманов Шахзод Шохрухович</b> , студент	
Yirik soliq to'lovchi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishda soliq ma'murchiligining istiqbollari.....	390
<b>G'aniyev Shaxriddin Vohidovich</b> , i. f. d.; <b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b> , PhD	
Sog'lomlashtirish turizmi klasterlari faoliyatida innovatsion faoliyatni boshqarishning kross-innovatsiyalar asosidagi modeli .....	395
<b>G'ofurov Azizbek Umarjonovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish yullari.....	400
<b>J. Y. Isakov</b> , i.f.d, professor	
Mehnat bozorining raqamlashgan iqtisodiyotdagi statistik masalalari.....	405
<b>A. Abduvohidov</b> , i. f. d., professor	
Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlardan hisobini yuritish.....	407
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b> , PhD	
Актуальная ситуация в сегменте теневой экономики в Республике Узбекистан .....	412
<b>Кошанов Абдимурат</b> , независимый исследователь	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari .....	416
<b>Qurbanova Shaxrinoz</b> , doktorant	
Erkin iktisodiy hududlarda investitsion faollikni oshirish masalalari.....	420
<b>Qilicheva Kamola Muzaffarovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	425
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatzulovich</b> , erkin izlanuvchi	
Sug'urtada assistans xizmatlarini takomillashtirish .....	433
<b>Maxmudov A. M.</b>	
Цифровизация бухгалтерского учета.....	439
<b>Мирсадикова Дилобар Дилшод кизи</b> , самостоятельный соискатель	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish .....	445
<b>Nasurova Kamola Ravshanovna</b> , PhD	
Повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках.....	451
<b>Нуриллаев Раҳмат Ярашевич</b> , к.с.х.н., доцент; <b>Нуриллаев Шердил Жамолиддин угли</b> , магистр	



Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari .....	456
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li</b>	
Uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish .....	460
<b>Berdiyeva Dilfuza Axatovna</b> , PhD, dotsent	
Экономика знаний как высший ступень развития инновационной экономики .....	466
<b>Хасанхонова Нодира Исаметдиновна</b> , PhD	
Kichik biznes subyektlarini samarali investitsiyalashning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi .....	471
<b>Ruziyeva Dilobar Isomjonovna</b> , iqtisod fanlari nomzodi	
Davlat-xususiy loyihalarning mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy asoslari .....	481
<b>Suleymanov Farrux Raximjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Комплексный анализ хозяйственно-экономической деятельности и устойчивости АО "Узавтосаноат" .....	487
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b> , доцент кафедры	
Экономическая сущность и важность повышения эффективности производства каракулеводческой продукции.....	493
<b>Тулкин Хайтмуродович Фармонов</b> , профессор; <b>Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич</b> , докторант	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari .....	499
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b> , PhD, kafedra dotsenti	
Инновационные методы энергосбережения как способ повышения конкурентоспособности предприятия .....	503
<b>Хамдамова Гавхар Абсаматовна</b> , к.э.н., профессор	
Hudud sug'oriladigan yerlarida suv resurslaridan foydalanish holati tahlili .....	508
<b>Shoxujayeva Zebo Safoyevna</b> , i. f.n., professor, katta ilmiy xodim	
Hududlarning moliyaviy-investitsion salohiyatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari .....	513
<b>Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi</b> , kafedra dotsenti i.f.d.	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xodimlar faoliyatining axborot tizimlarini samarali tashkil qilish .....	521
<b>Yuldashev Furqat Nurilloyevich</b> , doktarant	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyoti sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo'llari .....	524
<b>Boboqulov Sanjar Baxronkulovich</b> , PhD; <b>Akramov G'ayrat Otobek o'g'li</b> , talaba	
An Analysis of Green Taxation and Its Effect on Economic Growth .....	530
<b>Fayzieva Nargiza Rabimovna</b> , PhD	
Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlari .....	537
<b>Qurbanov Jasurbek Pozilovich</b> , kafedra dotsenti	
Raqamlı iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasining rivojlanishi va istiqboli .....	540
<b>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</b> , PhD, kafedra dotsenti	
O'zbekistonda energetika korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruvining baholash usullarini tahlili.....	544
<b>Abduraxmonova Zarina Muysinjonovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
O'rta Osiyo davlatlarida rekreatsiya turizmi .....	548
<b>Shaymanova Nigora Yusupovna</b> , doktorant	
Korxona investitsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar va qarashlar evolyutsiyasi .....	552
<b>Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li</b> , doktorant	
O'zbekiston sanoatining rivojlanish tendensiyalari, muammo va yechimlari .....	559
<b>Shavqiyev Erkin</b> , i. f. n.	
"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati, dastaklari va uning o'ziga xos tamoyillari .....	565
<b>Berdiyorov Baxtiyor Sodiqovich</b> , kafedra dotsenti	
Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlari .....	571
<b>Ashurov Maxammadjon Sotvoldiyevich</b> , i.f.n., kafedra dotsenti	
Ijtimoiy tarmoqlar analitikasi.....	576
<b>S. Qulimatova</b> , PhD, dotsent	
Analysing the Functioning of Enterprise Management in the Context of Institutional Reforms .....	581
<b>Kurpayanidi Konstantin Ivanovich</b> , Professor	
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini baholash .....	586
<b>Ruxsatova Rushana O'ktamovna</b> , erkin tadqiqotchi	
Soliq tushumlarini prognozlashtirish modellarini qurishning klassik va intellektual usullari .....	593
<b>Narmanov Ulug'bek Abdugapporovich</b> , PhD; <b>Maqsudov Azamat Maqsud o'g'li</b>	
Kompaniyani samarali boshqarishda marketingning o'rni va uning tamoyillarini qo'llash istiqbollari .....	598
<b>Usmonova Dilfuza Ilhkomovna</b> , kafedra dotsenti	
Экономическая безопасность и факторы влияющие на неё .....	602
<b>Абдишукров Шерзод Шавкат угли</b> , научный сосискатель	
Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy manbalari bo'yicha xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish .....	608
<b>Artikov Kurbonazar Amonovich</b> , mustaqil ilmiy tadqiqotchi	
Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning ahamiyati .....	614
<b>Asamxodjaeva Shoira Shukurullaevna</b> , katta o'qituvchi	



Перспективы развития инноваций и роль стартапов: зарубежный опыт, проблемы и решения.....	618
<b>Ачилова Ширин Шавкат кизи</b> , старший преподаватель	
Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashda garov ta'minotini takomillashtirish .....	622
<b>Bazarova Nigora Ravshanovna</b> , kafedra dotsenti	
Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini boshqarish masalalari.....	627
<b>Kenjayev Ilhom G'iyo佐ovich</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Organizational Factors Influencing Leadership Styles and Procurement Outcomes .....	632
<b>Saidakhmedov Islomjon Ulibekovich</b> , Scientific researcher	
Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari .....	637
<b>Mirpulatova Luiza Mansurovna</b> , doktorant	
Tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash metodologiyasining ekonometrik tahlillari.....	642
<b>Norov Akmal Ruzimamatovich</b> , DSc, kafedra professori	
Tijorat banklarida kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'llari .....	649
<b>Norova Nozima Nabiyevna</b> , katta o'qituvchi	
Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari .....	657
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li</b>	
Jahondagi kuzatilayotgan globallashuv va tabiatdagi o'zgarishlar oqibatida kelib chiqayotgan turli xatarlardan himoya qilishda sug'urta tashkilotlari oldida turgan vazifalar ("O'zbekinvest" EISK AJ misolida).....	661
<b>Sayfullo Mirzoyev</b>	
International Experiences on Restoration of Financial Stability Through Indicators in Commercial Banking Sector .....	666
<b>Solijonova Muxlisa Azamatovna</b>	
Pensiya yoshining pensiya ta'minoti tizimiga ta'siri.....	668
<b>Tursunov Jaxongir Pulatovich</b> , DSc	
Mamlakat iqtisodiyotini islom moliya instrumentlari orqali rivojlantirish istiqbollari.....	673
<b>Xalikov Ulug'bek Rustamovich</b> , PhD	
Sug'urta kompaniyalari va tijorat banklari integratsiyalashuv jarayonini zarurligi va ahamiyati.....	678
<b>Xudoyberdiyeva Sadoqat Abdumannonova</b> , mustaqil izlanuvchisi	
Qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning innovatsion menejment tamoyillari...	683
<b>Shaniyazova Zamira Oralbayevna</b> , PhD	
Тенденции развития жилищного строительства.....	688
<b>Алиева Зилола Маматвалиевна</b> , доцент кафедры	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning innovatsion usullari .....	692
<b>Shakirova Nigora Axralovna</b> , kafedra dotsenti v.b.	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'laring shakllanishi va nazorat qilinishi .....	698
<b>Xusanov Nishonboy Abdusattarovich</b> , filologiya fanlari doktori, professor	
Спиртные напитки - вред здоровью .....	702
<b>Кариева Халима Икромжоновна</b> , старший преподаватель кафедры	
Importance of Social Infrastructure Development in Rural Areas .....	706
<b>Munisa Alimova</b>	
Davlat xizmatida agile loyiha boshqaruvi texnologiyasidan foydalanish .....	709
<b>Isaqova Zebo Murodovna</b> , f.f.n. (PhD), tadqiqotchi	



# KORXONA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA INSON RESURSLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

**Abdualimov Ashraf Qurbonaliyevich**

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasи doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada korxonalar faoliyati barqarorligini ta'minlash va uni rivojlantirishda korxona iqtisodiy xavfsizligi tizimi mexanizmini ishlab chiqish, korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda xodimlarning ta'siri, xatti harakati va ishchi xodimlar faoliyatini samarali tashkil etish va olib borishda Employee mood loyihasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy xavfsizlik, korxona iqtisodiy xavfsizligi, tahdid, korxona iqtisodiy xavfsizligi strategiya, korxona iqtisodiy xavfsizligi tizimi, inson resurslari, xodim, xodimlarning qoniqish indeksi, ESI

**Abstract:** The article describes the development of the mechanism of the economic security system of the enterprise in ensuring the stability of the enterprise's activity and its development, the influence of employees in ensuring the economic security of the enterprise, the behavior of employees and the effective organization and conduct of the activity of employees.

**Key words:** Economic security, Economic security of the enterprise, threat, economic security of the enterprise strategy, economic security system of the enterprise, human resources, employee, employee satisfaction index, ESI

**Аннотация:** В статье рассмотрено развитие механизма системы экономической безопасности предприятия в обеспечении стабильности деятельности предприятия и его развития, влияние работников на обеспечение экономической безопасности предприятия, поведение работников и эффективное организацию и проведение деятельности сотрудников.

**Ключевые слова:** Экономическая безопасность, Экономическая безопасность предприятия, угроза, экономическая безопасность предприятия стратегия, система экономической безопасности предприятия, человеческие ресурсы, сотрудник, индекс удовлетворенности сотрудников, ESI

## KIRISH

Korxonada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bu uzlusiz jarayondir va bunda vujudga keladigan zararlarning oldini olish korxona uchun doimiy vazifadir. Zarar, xavf-xatar, tahidlarni oldini olish va korxonada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasi bo'lishi talab etiladi. Afsuski bugungi kunda ko'pgina korxonalar iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash haqida ma'lumotga ega emaslar, korxonalarda barcha bo'limlar o'z faoliyatiga mas'uligi bilan cheklanib qolishadi. Rivojlangan davlatlarning yirik kompaniya, konsorsiumga aylangan korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha shtablar faoliyat olib boradi. Aynan korxona iqtisodiy xavfsizligi bo'limi yuq, korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash shtabi (kengashi) mavjud. Shtab (kengash) korxona iqtisodiy xavfsizligi strategiyasini ishlab chiqadi. Strategiyani ta'minlash uchun korxona iqtisodiy xavfsizligi tizimi ishlab chiqiladi va faoliyat qiladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimi uning ichki tahidlari ya'ne, ilmiy – texnikaviy, ishlab chiqarish salohiyati hamda kadrlar faol va nofaol iqtisodiy tahidlardan, masalan, davlatning samarasiz ilmiy – sanoat siyosatidan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahidlardan himoyalanganligi tushuniladi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosi, hozirgi vaqtida dolzarb masaladir, chunki tashkilotning xavfsizligi bevosita xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati samaradorligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, bozorda raqobatning kuchaygani, tovar iste'molchisini topish, bozor muhitiga moslashish, talab va taklif qoidalariga amal qilishda korxonalar ma'lum choralar ko'rishga majbur. Korxona risklarini tahlil qilish nafaqat katta moddiy yo'qotishlarni, balki tuzatib bo'lmaydigan zararni va hatto bankrotlikdan ham qochish imkonini beradi. Iqtisodiy xavfsizlik biznes faoliyatining ajralmas elementi bo'lib, korxonaning butun hayoti davomida tadbirkorlik faoliyatiga xos bo'lgan tahidlarni boshqarishning murakkab tizimidir. Bu raqobat va iqtisodiy tavakkalchilik sharoitida biznes maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.



**1-rasm:** Korxona iqtisodiy xavfsizligining asosiy maqsadi

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ko'plab ta'riflar va yondashuvlar mavjud. Keling, turli mualliflarning ba'zi ta'riflarini ko'rib chiqaylik.

D. M. Dryagunovning fikricha, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda, uning faoliyatini yuritishi va foyda olishi uchun uning moliyaviy, moddiy va boshqa resurslar bilan barqaror ta'minlanishi ta'minlangan ma'lum bir holat tushunilishi kerak<sup>[1]</sup>.

Boshqa bir olim A. D. Sheremet korxonaning iqtisodiy xavfsizligini uning yuzaga kelayotgan tahdidlarni zararsizlantirish, shuningdek uning uzoq vaqt davomida doimiy ishlashini ta'minlash uchun barcha resurslardan eng samarali foydalaniladigan holati deb tushunadi<sup>[2]</sup>.

A. J. Esembekova, bu atamani tashqi va ichki muhitdan turli tahdidlar paydo bo'lishiga qaramay, korxonaning o'z faoliyatini ta'minlash qobiliyati deb tushunish kerak, deb hisoblaydi<sup>[3]</sup>.

T. V. Pogodina bunday kontsepsiyanı iqtisodiy, moliyaviy, ishlab chiqarish, texnologik kabi sohalarda himoya qilishni ta'minlaydigan muayyan tizim sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash turli xil chora-tadbirlarni qabul qilish orqali amalga oshiriladi: iqtisodiy, huquqiy, texnik, tashkiliy<sup>[4]</sup>.

V. L. Shultsning fikriga ko'ra, har qanday korxonaning iqtisodiy xavfsizligi – bu uning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har xil turdag'i tahidlardan himoya qilishni ta'minlash asosiy maqsad bo'lgan ma'lum bir davlatdir<sup>[5]</sup>.

D. Y. Desyatnichenko kabi muallifning fikricha, bu atama noaniqlik sharoitida, shuningdek, turli tahdidlar mavjudligida korxonaning barqarorligi, omon qolishi va rivojlanishiga yordam beradigan ma'lum bir tizimni ifodalaydi<sup>[6]</sup>.

Bu adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi, eng avvalo, ma'lum bir tizimdir. Bundan tashqari, har bir ta'rif tizim paydo bo'ladigan tahidlarning oqibatlarini zararsizlantirishi yoki yo'q qilishi kerakligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda yuzaga keladigan tahidlarni zararsizlantirish, shuningdek uning uzoq vaqt davomida doimiy ishlashini ta'minlash uchun barcha resurslardan eng samarali foydalaniladigan holat tushunilishi mumkin.


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ishni bajarishda bilish, retrospektiv va hujjalı tahlil qilish, iqtisodiy tahlil, indeks usuli, modellashtirish, sintez umumlashtirish va tizimlashtirish usullari qo'llaniladi. Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rivojlantirishning obyektiv qonuniyatlarini aks ettiruvchi umumlashtirilgan tajriba va ijtimoiy amaliyot, shuningdek, korxonaga iqtisodiy tahidlarni amalga oshirishni modellashtirish qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ishning maqsadi O'zbekiston Respublikasida korxonaning iqtisodiy xavfsizligining asosiy jihatlarini o'rganishdir. Ushbu ishning o'rganish obyekti korxona, subyekti esa uning iqtisodiy xavfsizligi hisoblanadi. Korxonaning samaradorligi nafaqat tashqi omillarga, balki eng ko'p ichki omillarga: jamoat, kadrlar siyosati, xodimlar faoliyatiga bog'liq. Ularning muayyan tashkilot faoliyatiga kompleks ta'sirini o'rganish kompaniyaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tashkilotning iqtisodiy xavfsizligini, uning barqaror ishlashini va bozordagi barqaror mavqeini ta'minlash uchun ichki tahidlarni oldini olishda xodimlar bilan ishlash juda ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, korxona xavf-xatarlardan kelib chiqadigan oqibatlar va yo'qotishlarni kamaytirish bo'yicha majburli choralar ko'rish kerak.

Birinchidan, korxonaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish tizimi tushunchasini aniqlab olishimiz lozim. Bu korxona faoliyatining barcha jabhalarining har tomonlama va sifatlari xavfsizligini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyidir.



**1-rasm:** Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish tizimini tashkil etish<sup>1</sup>

Inson kapitali deganda nafaqat kadrlar xavfsizligi obyekti, balki subyekt ham tushuniladi. Buning sababi shundaki, kadrlar xavfsizligi murakkab o'ziga xos subyekt-obyekt munosabatlari bilan tavsiflanadi. Ular shunday rivojlanadiki, xodimlar tahdid manbayi (subyekt), mulkiy nomulkiy zarar yetkazadigan va moddiy nomoddiy zarar yetkazadigan (obyekt) shaxs sifatida harakat qilishlari mumkin. Ya'ne xodimlar ham zarar yetkazuvchi va boshqa tomonidan zararni bartaraf etuvchi bo'lishi mumkin<sup>2</sup>.

Tashkilot va uning xodimlarining manfaatlari imkon qadar o'xshash bo'lsagina, tashkilot samarali va barqaror ishlaydi. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu subyektiv-obyektiv munosabatlarning har bir ishtirokchisi o'z manfaatlarini himoya qilishdan manfaatdor bo'ladi va ularning maqsadi ijtimoiy va mehnat munosabatlari doirasida hayotiy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahidlarni bartaraf etish va oldini olish bo'ladi.

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi asosiy subyekt bu xodimlardir. Agar korxonada xodimlar zavq siz ishlasa, ishning natijasi o'rtacha bo'ladi. Bu holatda har bir xodim mahsulot, loyiha yoki umuman kompaniyani rivojlantirish uchun barcha sa'y-harakatlarini amalga oshirishi dargumon. Bundan tashqari, norozilik ishdan bo'shatish va xodimlar almashinuviga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida korxona iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xodimlarga e'tibor kompaniyaga o'zar o'e'tiborni va biznes jarayonlarida ishtirok etishni keltirib chiqaradi. Mehnat sharoitlari va ish muhitidan qoniqish yuqori darajadagi mashg'ulotlarga yordam beradi. Shuning uchun xodimlarning qoniqishini turli ko'rsatkichlar bo'yicha baholash juda muhimdir.

Bugungi kunda amaliyotda korxona xodimlarini baholashni juda ko'p metodlari mavjud lekin, 80–90% metodlar xodimlar salohiyatini baholab bu natijalar korxona manfaatiga ko'proq xizmat qiladi. Ilmiy izlanishimiz natijasi shuni ko'rsatmoqdaki iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning yirik korxonalarida misol uchun Rossiya

1 Roxvarger L. A. "Effektivnaya struktura upravleniya ekonomicheskoy bezopasnosti predpriyatiya" \*Muallif tomonidan kiritilgan taklif

2 Andrunik A. P. Kadrovaya bezopasnost: innovatsionnie texnologii upravleniya personalom : uchebnoe posobie / A. P. Andrunik, M. N. Rudenko, A. Y. Suglobov. – 2-ye izd. – Moskva : Izdatelsko-torgovaya korporatsiya "Dashkov i K°", 2020.



Federatsiyasining “White Rabbit Family” kompaniyasi o‘z amaliyotida korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda xodimlar manfaatini inobatga olish va xodimlar sharoitini bilishda ESI (Employee Satisfaction Index) xodimlarning qoniqish indeksi yordamida inson resurslarini samarali boshqarib xodimlar maksimal darajada ishga faoligi oshgan.

### Xodimlarning qoniqish indeksi (ESI)

ESI (xodimlarning qoniqish indeksi) korxonaning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini aks ettiruvchi xodimlarning qoniqish indeksi. Ko’sratkich uchta savolga javoblardan olingan ballar asosida hisoblanadi. So’zlar boshqacha bo’lishi mumkin, ammo ma’nosi bir xil:

- Ish joyidan qoniqish darajasi qanday?
- Sharoiti muvofiqligi darajasi qanday?
- Idealga yaqinlashish darajasi qanday?

Baholash shkalasi 1 dan 10 gacha. Keyinchalik, individual respondent uchun indeks quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\text{ESI} = ((\text{barcha savollar uchun ballar yig'indisi} \div 3) - 1) \div 9 \times 100\%$$

Ruxsat etilgan standartlar yo‘q, xodimlarning qoniqish indeksi vaqt o’tishi bilan nazorat qilinadi.

Ushbu amaliy tadqiqotni Respublikamizning yirik korxonalarida qo’llash uchun “Employee mood” bo’limi xodimlar sharoiti indeksini o’rganuvchi bo’lim faoliyatini yo’nga quyish taklifini ishlab chiqdim. Raqamli vositalar korporativ dasturlar va xizmatlar interfeyslarida bildirishnomalar (xabarlar) yordamida har kuni impulsli so’rovlarni o’tkazishga imkon beradi. Tizim kayfiyat haqida oddiy savollar berishi, bajarilgan vazifani baholashni, qo’llab-quvvatlash darajasini so’rashi mumkin. Javoblar ballar shaklida bo’lishi mumkin. Bunday dinamik kuzatuv “qulgingizni yurak urishida ushlab turish” va o‘z vaqtida choralar ko’rishga yordam beradi. Xodimlarning qoniqishi – bu xodim o‘z ishining turli jihatlaridan, shu jumladan korporativ atmosferadan, ish joyini tashkil etishdan va ish haqi darajasidan qoniqish hosil qiladigan psixologik holat. Bu holat kompaniyaning qadriyatlariiga sodiqlik, uzoq muddatli ish va hatto uning chegaralaridan tashqarida ham unga sodiq munosabatda namoyon bo’ladi. Ishdan qoniqish darajasini bir butun sifatida va turli nuqtayi nazaridan o’lchash bizga zaif tomonlarni aniqlash va jamoaning samaradorligini oshirish yo’llarini topish imkonini beradi.

### Nima uchun xodimlarning qoniqish so’rovini o’tkazish kerak

So’rovlар haqiqiy vaziyatni baholashning eng aniq usulidir. Xodimlar o’zining ish faoliyati bo‘yicha masalan: ish joyidagi sharoit, ish haqi, ishchiga bo’ladigan munosabat, texnik ta’minot, ovqatlanish va h.k. parametrlari bo‘yicha anonim so’rov nomalari o’tkaziladi. Bu, ayniqsa, juda ko’p xodimlarga ega yirik kompaniyalar uchun to’g’ri keladi.

Xodimlarni boshqarishning an’anaviy formati yiliga bir marta qoniqish va faollikni o’lchashni o‘z ichiga oladi. Norozilikning mumkin bo’lgan oqibatlari nuqtayi nazaridan, bu juda katta bo’shilq. Shuning uchun parametrni individual chastota bilan muntazam ravishda tahlil qilish tendensiyasi mavjud – har chorakda, oyda, haftada bir marta.

### Ishdan qoniqishga ta’sir etuvchi omillar

Ko’sratkich hissiy munosabat bilan bog’liq va unga turli xil holatlar ta’sir qilishi mumkin. Mehnat muhiti – bu xodimlarning holatiga ta’sir qiluvchi omillar majmuasidir. Quyidagi omillar xodimlarga eng ko’p ta’sir qiladi:

Ish haqi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga mos ravishda hajmi, o‘z vaqtida, muntazam oshirib borilishi, rag’batlantiruvchi to’lovlar va mukofotlar muhim ahamiyatga ega.</li> </ul>
Ijtimoiy paket.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mehnat qonunchiligiga riosa qilishni, shu jumladan ish va dam olish vaqtini tartibga solish, ta’tillar berish, kasallik ta’tillari va boshqa ijtimoiy kafolatlarni o‘z ichiga oladi.</li> </ul>
Ish joyi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• uning jihozlari, qulayligi, vositalari va himoya choralari baholanadi.</li> </ul>
Jamoadagi atmosfera	<ul style="list-style-type: none"> <li>• shu jumladan ichki an’analar, muloqot tamoyillari, umumiy professionallik darajasi, o’zaro yordam darajasi.</li> </ul>



Etakchilik uslubi	• hodimlar kelishuvlarga rioya qilish, dialog o'tkazish qobiliyatini va bo'y sunuvchilar bilan o'zaro munosabatlarning tabiatini baholaydilar. Maqsadlarni belgilash va ish natijalarini monitoring qilish tizimi ham ta'sir qiladi.
Umumiy intizom	• Bu nuqta jamoaning ichki qoidalarga rioya qilish, qoidalarga rioya qilish, korporativ ierarxiya va bo'y sunish majburiyatiga bo'lgan munosabatini o'z ichiga oladi.
Karyera o'sishi.	• hodimlar uchun o'z salohiyati va ambitsiyalarini ro'yobga chiqarish muhim, shuning uchun vertikal rivojlanish istiqbollari muhim omillar qatoriga kiradi.
Umumiy sodiqlik	• bu jamoa a'zolarining o'z ishlariga qanday munosabatda bo'lislari, o'zlarini qanchalik faol his qilishlari va kompaniyani boshqalarga tavsiya etishga qanchalik tayyor ekanliklari.
Axborotni qo'llab-quvvatlash	• hodimlarni innovatsiyalar, fikr-mulohazalar sifati, o'qitishda yordam berish haqida qanday ogohlantiriladi.

**3-rasm:** Ishdan qoniqishga ta'sir etuvchi omillar<sup>3</sup>

Har bir kompaniyaning o'ziga xos qo'shimcha omillari bo'lishi mumkin. Misol uchun, qo'ng'iroq markazlarida operatorlar uchun mojaroli vaziyatlarda rahbariyat o'zini qanday tutishi muhim – u o'z xodimini tushunishga va himoya qilishga harakat qiladimi yoki uni aybdor qiladimi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Har qanday soha bo'lmasin inson manfaati va qadri birinchi darajada turishi lozim. Bugungi kun iqtisodiy jarayonlar tez rivojlanayotgan bir davrda korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash asosiy masalaga aylanmoqdaki uning natijasi nafaqat mikro balki makrodarajaga ta'siri mavjud. Xodimlarning o'z ishlaridan qanchalik qoniqishlarini tahlil qilish kompaniya siyosati va biznes jarayonlarini o'z vaqtida o'zgartirishga yordam beradi. Tadqiqot davomida mehnat sharoitlarini yaxshilash va yangi parametrlarni joriy etish bo'yicha strategiyalar shakkantirilmoqda. Umumiy korporativ g'oya bilan birlashtirilgan kuchli, bargaror jamoa yuqori mahsuldarlikni ko'rsatadi va kompaniya daromadining o'sishiga ta'sir qiladi. Ushbu "Employee mood" bo'limi (xodimlar sharoiti indeksini o'rganuvchi bo'lim) ni korxonada tashkil etish taklifimiz Respublikamiz yirik korxonalrini samaradorligini 50–60 % oshirishga amaliy yordam berishi, ish unumidorligini oshirishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

- Дрягунова, Д. М. Финансовоэ состояние предприятия и его анализ / Д. М. Дрягунова – Текст : непосредственный // Молодой ученик. – 2018. – №43. – С. 218–220.
- Шеремет, А. Д. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия: учебник – 2-е изд., доп./А. Д. Шеремет. – Москва: ИНФРА-М, 2017. – 374 [1] с.; 22 см. – 8000 экз. – ИСБН 978–5–534–05776–0. – Текст: непосредственный.
- Есембекова, А. Ж. Финансовая безопасность – основа финансовой устойчивости/ А. Ж. Есембекова. – Текст: непосредственный // Проблемы со временной экономики: материалы ИИ междунар. науч. конф. (г. Челябинск, ок-тябр 2016 г.). – Челябинск: Два комсомолса, 2016. – С. 89–91.
- Погодина, Т. В. Финансовый менеджмент : учебник и практикум / Т. В. Погодина. – М.: Юрайт, 2018. – 351 [1] с.; 22 см. – 7000 экз. – ИСБН 978–5–534–00680–3. – Текст : непосредственный.
- Шулс, В. Л. Безопасност предпринимателской деятельности : учебник для вузов/ В. Л. Шулс, А. В. Юрченко, А. Д. Рудченко ; под редакц-ией В. Л. Шулса. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2020. – 585 [1] с.; 22 см. – 5000 экз. – ИСБН 978–5–534–12368–5. – Текст : непосредственный.
- Десятниченко, Д. Й. Угрозы финансовой безопасности устойчивого функционирования предприятия / Д. Й. Десятниченко, О. Й. Десятни-ченко, В. В. Остапенко. – Текст : непосредственный // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2018. – 4. – С. 75–81.
- Z. Aminov. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ... dis-sertatsiya avtoreferati. Samarqand. 2009. 10-b.
- Roxvarger L. A. "Effektivnaya struktura upravleniya ekonomiceskoy bezopasnosti predpriyatiya"
- ESI blog\_info/ocenka-udovletvorennosti-personala/

<sup>3</sup> ESI blog\_info/ocenka-udovletvorennosti-personala/

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

